

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

MTT-97 guruh talabasi

Ikramov Alimardon

Annotatsiya. *Ushbu tezda Aksiyadorlik jamiyatlari o'z faoliyati davomida yuqori darajada moliyaviy resurslarga ehtiyoj sezishadi. Ushbu ehtiyojlarni qondirishda korporativ tuzilmalar tomonidan kapital jalb qilish orqali hal etishadi. Bugungi kunda moliya bozorida kapital jalb qilishning eng keng tarqalgan zamonaviy usullaridan biri sifatida aksiyalarni dastlabki ommaviy joylashtirish amaliyotlarini (IPO) tashkil etish orqali kapital jalb qilish samarali hisoblanadi. Moliya bozorida aksiyalarni dastlabki ommaviy joylashtirish (IPO) orqali katta miqdorda kapital (mablag'lar) jalb qilish imkoniyati mavjudligi sabablari keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Bozor kapitallashuv, IPO bozori, Aksiyadorlik jamiyatlari, investor, innovatsion texnologiyalar, anterrayterlik faoliyati, auksion.*

Aksiyalarni ochiq obuna tartibida joylashtirish amaliyoti qisqacha IPO (ing. (Initial Public Offering)) deb yuritiladi. IPO emitent tomonidan aksiyalarni bozorda birlamchi ochiq obuna usulida joylashtirish bo'lib, bu jarayon davomida ular investorlarning keng doirasiga kirib boradilar va fond birjasida erkin savdoni amalga oshiradilar. IPO deganda emitent kompaniyaning aksiyalarini ochiq bozorda birinchi marta sotuvga chiqarishi tushuniladi. Shu yo'l bilan kompaniya ushbu kompaniya aksiyalariga qiziqib qolgan investorlar ularni fond birjasida erkin sotib olishlari mumkin. Kompaniya qimmatli qog'ozlarining birjada muomalaga chiqishi natijasida ularni erkin savdo-sotiq predmeti bo'lishiga, likvidligi oshishiga va ularning bozor bahosining maksimal o'sishiga olib keladi. IPO yordamida kompaniyada joriy xarajatlarni qoplashga va yirik loyihalarni amalga oshirish uchun uzoq muddatli tashqi moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoni mavjud bo'ladi. IPO uchun talab qilinadigan jarayonlar va ularning

amalga oshirilishi kompaniyaning shaffofligini oshiradi va uning moliyaviy holatini obyektiv baholash imkonini beradi.

IPO samaradorligini baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlar qo'llaniladi: Agar kompaniyaning bozor kapitallashuvi birinchi ommaviy taklifdan keyin 30 kun ichida sanoat raqobatchilarining bozor kapitallashuviga teng yoki undan yuqori bo'lsa, IPO muvaffaqiyatli hisoblanadi. Aks holda, IPOning ishlashi gumon ostida qoladi

Bozor kapitallashuvi = aksiya bahosi x Kompaniyaning muomaladagi aksiyalarining umumiy soni

Xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan aksiyalarni soni cheklanmagan investorlar orasida reklama kampaniyasini o'tkazgan holda ochiq obuna qilish yo'li bilan ommaviy joylashtirish IPO uchun asos bo'lishi mumkin. IPOni o'tkazish ma'lum tartibotga rioya etishni, ya'ni xalqaro amaliyotda "Road Show" deb nomlangan reklama kampaniyasini amalga oshirishni talab etadi. Albatta, bankning aksiyalarini fond birjasida joylashtirish unga katta foyda keltirishi mumkin. Biroq, aksiyalarni birlamchi ommaviy joylashtirishga tayyorgarlikni boshlashdan avval, tijorat banki strategik maqsadlarini belgilab olishi zarur.

Buning uchun, IPO tartibotini o'tkazadigan har qanday aksiyadorlik jamiyati investitsiya loyahasini ishlab chiqishi va uni bo'lajak investorlarga taqdim etishi lozim. Chunki kelgusida IPO orqali aksiyalarni sotib olmoqchi bo'lgan investorlar, shu jumladan aholi va tadbirkorlik sub'ektlari ular qo'ygan moliyaviy mablag'lar qanday maqsadlarga sarflanishi xususida tasavvurga ega bo'lishi darkor. Fikrimizcha banklar aksiyalarining dastlabki ommaviy joylashtirilishi bir nechta bosqichlarda amalga oshirishi zarur⁴⁹.

CapitalIQ va PREQVECA ma'lumotlar bazasiga asosan 2000-2020- yillar oraliqda tahlil qiladigan bo'lsak, jahondagi banklarning 305 ta IPOsi kiritilgan.

IPO bozorida tijorat banklarining ipolari hajmi (mln dollarda)⁵⁰
Banklarning IPOlari davomida jalb qilingan mablag'larning umumiy hajmi 218 milliard dollarni tashkil etgan. Oxirgi 10 yil davomida tijorat banklari IPO bozorida hajmi o'zgarib turganini guvohi bo'lishimiz mumkin. Eng katta

hajmga 2010-yilda erishilgan bo'lsa, eng past hajm 2012-yilda bo'lgan. Bular shundan dalolat beradki, xorijiy tijorat banklar IPO bozorida faol qatnashib kelayapti.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida xulosa sifatida quyidagilarni alohida aytishimiz mumkin: 1. Mamlakatimizda so'ngi yillarda tijorat banklari tomonidan aksiyalarni ommaviy joylashtirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlarda rivojlangan davlatlar amaliyotidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlaymiz. Bu usul orqali o'zlariga tegishli aktsiya paketlarini dastlabki ommaviy joylashtirishi natijasida o'zining kapitallashuv darajasini oshirishi mumkin. Buning natijasida esa tijorat bank qo'shimcha moliyaviy resurslarga ega bo'ladi.

Xorijiy bank amaliyotida juda rivojlangan usul IPO amaliyoti hisoblanadi. Bu amaliyotni respublikamiz bank amaliyotida qo'llash uchun banklar aksiyalarining dastlabki ommaviy joylashtirilishi bosqichlardan foydalanishni samarali tashkil etish lozim. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Respublikamiz aksiyadorlik jamiyatlari kapitallashuv darajasini oshirish zamonaviy usullari hisoblangan IPO va SPO amaliyotlaridan keng foydalanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

XULOSA

Dunyo miqyosida IPO amaliyotlarini tashkil etishni o'rganish va ushbu operatsiyalarda institutsional investorlar ishtirokini tadqiq qilish orqali quyidagi xulosalarga kelish mumkin: - Xalqaro darajadagi IPO operatsiyalarida institutsional investorlar son jihatdan kam miqdorda ishtirok etishsa-da, lekin joylashtirilayotgan aksiyalarning katta qismini sotib olishini aytib o'tish lozim. Bu esa IPO operatsiyalarida institutsional investorlarning investor sifatidagi faoliyati muhim ekanligini ko'rsatadi. - Potensial investorlar uchun roadshoularni tashkil qilishda potensial investorlar faoliyat yuritayotgan mamlakatdagi soliqqa tortish darajasini ham inobatga olish lozim, chunki potensial investor kelajakda kutiladigan dividend uchun yuqori soliq to'lasa, aksiyalar orqali daromad olishga qiziqishi past bo'ladi. - IPO davomida institutsional investorlar tomonidan aksiyalar ma'lum bir qismining sotib olinishi IPO operatsiyasiga sezilarli ta'sir

ko'rsatadi, ya'ni xalqaro darajadagi institutsional investorlar aksiyalarni sotib olishda chuqur tahlillarga asoslanadi. Ushbu tahlillar IPO operatsiyalarida kichik investorlar uchun ham ishonchli tahlil sifatida xizmat qiladi va ularning ishtirokini ham oshiradi. - IPO operatsiyalarining samaradorligini oshirishda ularning tashkiliy bosqichlari, shuningdek, IPO operatsiyalarini tashkil etish usullarini tahlil qilish zarur. IPO jarayonida belgilangan narxlar (fixedprice), auksion (auction) va buk-bilding (bookbuilding) usullarini qo'llashning ijobiy va salbiy jihatlarini o'rganish va bu bo'yicha xalqaro tajribani ham tahlil qilish lozim. - IPO amaliyotida institutsional investorlarning andarrayterlik faoliyatini ham alohida ta'kidlab o'tish lozim. Andarrayterni tanlash, uning tajribasi va bozordagi obro'si bilan kompaniya tanishib chiqish zarur, chunki andarrayter tanlash IPO natijasiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi jihatlardan biri hisoblanadi. Shu sababli yirik IPO operatsiyalarini amalga oshirgan kompaniyalar andarrayterlik faoliyatiga bir guruh yirik banklar, investision banklar, xalqaro sug'urta kompaniyalari yoki kredit tashkilotlarini jalb qilganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Thomas Chemmanur, Gang Hu, Jiekun Huang. The Role of Institutional Investors in Initial Public Offerings. // The Review of Financial Studies, November 2010. – P.46;
2. Ufuk Güçbilmez, Tomás Ó Briain. Bidding styles of institutional investors in IPO auctions. // Journal of Financial Markets, 2 June 2020, 100579. – P.21;
3. Chui Zi Ong, Rasidah Mohd-Rashid, Kamarun Nisham Taufil-Mohd. Do institutional investors drive the IPO valuation? // Borsa Istanbul Review, 19 May 2020;
4. Hsin-Yi Huang, Min-Hsien Chiang, Jia-Hui Linc, Yun Lin. Fixed-price, auction, and bookbuilding IPOs: Empirical evidence in Taiwan. // Finance Research Letters 22 (2017) 11-19;
5. Elmirzayev S.E., Boyev B.J. Aksiyalarni ommaviy joylashtirish operatsiyalarini tashkil etish va o'tkazish. // "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. № 3, iyun, 2018 yil. – B.8;

6. Q.Chinulov. Respublikamizda ilk IPO hamda SPO: yutuqlar va muammolar.

// “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 5, oktyabr, 2019 yil. –

B.12;